

“Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida ZOOM videokonferensiya dasturi orqali yig‘ilish o‘tkazildi

Joriy yilning 17-iyul kuni soat 15:00-da Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faollar zalida vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tashabbusi bilan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida (ZOOM videokonferensiya dasturi orqali) oliy ta’lim muassasalari birinchi prorektorlari, bo‘lim boshliqlari va xodimlari, dekanlar va ularning o‘rinbosarlari hamda tyutorlar ishtirokida respublika miqyosida yig‘ilish o‘tkazildi.

Tadbirda Toshkent davlat yuridik universiteti professori Salomat Diyorova, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i M.Parmonov, bo‘lim bosh mutaxassisi Sh.Yadgarov va boshqa mutassadi xodimlar hamda Termiz davlat universiteti rahbarlari, bo‘lim boshliqlari va tyutorlari qatnashishdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarini bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida ma’ruza qilishdi. Shuningdek, ular o‘z chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda ta’lim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida ta’kidlab o‘tishdi.



Termiz davlat universitetida 2024-2025 o‘quv yili uchun bakalavriat talabalari o‘rtasida Universitet stipendiyasi qabul jarayoni tashkil etildi.

2024-yil 20-maydagi universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan bakalavriat talabalari uchun “Universitet stipendiyasi va uni tayinlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga hamda 2024-yil 4-iyundagi oliygoh rektorining 94-U-son buyrug‘iga asosan 5-iyundan 25-iyungacha talabalardan hujjatlar qabul qilindi va quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.

Universitet stipendiyasi tanloviga qabul hamda u bilan bog‘liq jarayonlarni tashkil etishda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish (oldini olish) hamda oliygoh xodimlarining ongiga, kayfiyatiga va xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida Termiz davlat universitetining rasmiy telegramm kanallarida va ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida targ‘ibot tashviqot tadbirlari amalga oshirildi.

Joriy yilning iyun oyida amalga oshirilgan tadbirlar universitetning rasmiy (<https://t.me/terdu340/23159>), [TerDU yoshlari](https://t.me/TerDU_Yoshlari) (https://t.me/TerDU_Yoshlari) va [akademik litseyning](https://t.me/TerDU_Akademik_litsey_kanali) (https://t.me/TerDU_Akademik_litsey_kanali) hamda [oliygoh fakultetlarining](https://t.me/TerDU_Akademik_litsey_kanali) telegramm kanallarida yoritildi va rasmiy Facebook kanaliga (<http://facebook.com/tersuuzrasmiy>) joylashtirildi.



Bundan tashqari, oliygoh veb-saytida Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi ilovasi “Korrupsiyaga qarshi kurash” ruknida quyidagi me‘yoriy hujjatlar joylashtirildi. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-931-son, 05.06.2024-y.);
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (PQ-210-son, 05.06.2024-y.);
- “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning Qarori (PQ-228-son, 21.06.2024-y.).


Shu bilan birga, korrupsiyaning davlat va jamiyat uchun ijtimoiy xavfli xususiyatlarini keng targ‘ib qilish hamda yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish maqsadida **“Manfaatlar to‘qnashuvi – nima? O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun mohiyati haqida”** mavzusida o‘tkazilgan davra suhbat tadbiri 26-iyun kuni Surxondaryo viloyati televideniyesining (MTRK) “Huquqiy jamiyat sari” dasturi orqali efirga uzatildi.

Hujjat topshirgan nomzod talabalarning oxirgi bir yillik olgan baholari tekshirilganda O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Panjiyeva Zarinabonu Husniddin qizining talabalik davrining oxirgi bir yilligida 2 ta “3” bahosi o‘zgartirilganligi aniqlanib, u nomzodlar safidan chetlashtirildi hamda talabaga kelgusida bu kabi xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan taqdirda unga nisbatan intizomiy, ma‘muriy va jinoiy jazo choralari qo‘llanilishi to‘g‘risida ogohlantirildi.



2024/2025 o‘quv yili bakalavriyatga qabulda Termiz davlat universitetida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkazildi

2024-yil 8-iyuldan 15-iyulga qadar 2024/2025 o‘quv yili bakalavriyatga qabulda Termiz davlat universitetida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkazildi va imtihonlarda korrupsiyaviy harakatlarning oqibatlarini va unga qarshi kurashish bo‘yicha universitet rahbarlari, professor-o‘qituvchilari va xodimlari orasida profilaktik, targ‘ibot – tashviqot hamda tushuntirish ishlari olib borildi. Shu bilan birga, universitetning ijtimoiy tarmoqlari orqali quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashishni yorituvchi videoroliklar va ma’lumotlar targ‘ib qilindi.



Jumladan:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi hamda Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ko‘magi asosida tayyorlangan **“Korrupsiya – halokatga yo‘l”** mavzusidagi videorolik, ko‘rganlar soni 7453 nafar;
- “Yuksalish” harakati tomonidan tayyorlangan **“Korrupsiya haqida xabar berganlarga nimalar kafolatlanadi?”** va **“Yangi O‘zbekistonning aksikorrupsiya islohotlari fakt va raqamlarda”** mavzularidagi videoroliklar, ko‘rganlar soni 7112 nafar;

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tayyorlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 5-iyun kuni imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-931-sonli) hamda “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (PQ-210-conli, 05.06.2024-y.) qabul qilinganligi haqidagi ma’lumotlar, ko‘rganlar soni 5598 nafar;

- **“Biz korrupsiyaga qarshimiz”** mavzusida tayyorlangan 2 ta videoroliklar, ko‘rganlar soni 16462 nafar;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muvaffaqiyatli natijalarga erishgan xorijiy davlat tajribasi aks ettirilgan **“Korrupsiyani yenggan mamlakat – Singapur mo‘jizasi”** sarlavhali videorolik, ko‘rganlar soni 5876 nafar.



2024/2025 o‘quv yili bakalavriyatga qabulda kasbiy (ijodiy) imtihonlarda ishtirok etish uchun Termiz davlat universitetiga jami 1012 nafar abituriyentlar ariza topshirishgan. Shundan: imtihonlarga qatnashishi kerak bo‘lganlar soni 1012 tani, imtihonga qatnashganlar soni 752 tani va imkoniyati cheklangan abituriyentlar soni 17 tani tashkil qildi. Imtihonlarga 260 nafar abituriyentlar qatnashishmadi, shundan imtiyozga ega bo‘lgan 15 nafar abituriyentlar va boshqa sabablarga ko‘ra 245 nafar abituriyentlar.

Amalga oshirilgan kasbiy (ijodiy) imtihonlar jarayonlarida boshqa oliy ta’lim muassasalaridan kelgan komissiya a’zolarining, Termiz davlat universiteti rahbariyati, professor-o‘qituvchilari va xodimlarining korrupsion holatlarga yo‘l qo‘yishayotganliklari va odob - axloq qoidalarini buzilishiga olib keladigan xarakterlarni sodir etishayotganliklari xususida ma’lumotlar olinmadi.

Termiz davlat universitetida 2024-2025 o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalariga qabul jarayoni tashkil etildi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarni taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 226-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 25-martdagi 01-10-70-son chora-tadbirlar rejasi hamda Termiz davlat universiteti rektorining 2024-yil 4-iyundagi 93-U-sonli buyrug‘iga asosan 25-iyundan yozgi semestr yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalari tanloviga nomzodlardan hujjatlar qabul qilindi va quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyasi tanlovlariga qabul hamda u bilan bog‘liq jarayonlarni tashkil etishda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish (oldini olish) hamda oliygoh xodimlarining ongiga, kayfiyatiga va xulq-atvoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish maqsadida Termiz davlat universiteti veb-saytining “Korrupsiyaga qarshi kurash” ruknida (<https://tersu.uz/struct/view/1075>), rasmiy telegramm kanallarida (<https://t.me/terdu340/23159>), (https://t.me/TerDU_Yoshlari), ([https://t.me/TerDU Akademik litsey kanali](https://t.me/TerDU_Akademik_litsey_kanali)), [fakultetlarning](#) telegramm kanallarida va rasmiy Facebook kanalida (<http://facebook.com/tersuuzrasmiy>) hamda ommaviy axborot vositalarida jami 10 ta “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida targ‘ibot tashviqot tadbirlari amalga oshirildi.

Qabul davrida barcha fakultetlardan jami 37 nafar nomzod talabalar hujjat topshirishdi. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga (Magistratura) 1 nafar;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga (Bakalavr) 4 nafar;
- Navoiy nomli davlat stipendiyasiga 24 nafar;
- Bobur nomli davlat stipendiyasiga 1 nafar;
- Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga 2 nafar;
- Ulug‘bek nomli davlat stipendiyasiga 5 nafar.



Universitet rektorining 2024-yil 4-iyundagi 93-U-sonli buyrug‘i 4-bandiga asosan davlat stipendiyalariga davogar talabalarining hemis platformasidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari aniqlandi va talabgorlarga imzolangan muhrlangan qaydnomalar berildi hamda ularning umumiy talabalik yoki magistrlik davrida bahosi o‘zgartirilganlik holatlari tekshirildi. Natijada 37 nafar davlat stipendiyalariga davogar talabalar orasida bahosini o‘zgartirganlik holatlari aniqlanmadi.

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”

Joriy yilning 27-iyul kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xonasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan murojaatlarni “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qat’iy amal qilgan holda o‘rganilishini ta’minlash maqsadida oliygoh “Yuridik” fakulteti “Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi” kafedrasida katta o‘qituvchisi Bo‘riyev O.Q. ishtirokida Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish hamda Devonxona va hujjatlar ijrosi nazorati bo‘limlari xodimlari orasida davra suhbat tadbiri tashkil qilindi.



Tadbirda so‘zga chiqqanlar korrupsion holatlarning oldini olish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, bunday holatlarga duch kelinganda xabar berish tartibi hamda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun - mohiyati va ahamiyati xususida ma’ruza qilishdi.

